

MUSIQALI TEATR AKTYORLARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA SAHNA NUTQINING SPETSIFIK AHAMIYATI

Kadirov Ramz Turabovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqali teatr aktyorlarining kasbiy rivojlanishida sahna nutqining spetsifik ahamiyati yoritilgan bo'lib, fanning o'qitilish metodikasi va unga spetsifik yondoshuv haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: san'at, sahna, teatr, sahna nutqi, aktyorlik mahorati, artikulyatsiya, diksiya, ovoz, nafas.

Musiqali teatr aktyorligi san'ati ixtisosligida sahna nutqini o'qitish dramatik teatr aktyorligi san'ati ixtisosligining umumnazariy asoslariga tayanadi. Ammo, yondashuvda biroz farq qilib, musiqali dramaning shartli va shartlilik asosiga qurilgani e'tiborda tutilishi lozim bo'ladi. Chunki drama aktyoridan farqli o'laroq u kuylovchi aktyor, aniqrog'i aktyorlar solist-vokalist deb nomlanadigan teatr jamoasiga borib qo'shiladi.

Musiqali teatr "shartli" teatr, uning shartlilik shundaki, drama teatri aktyori sahnaviy haqiqatni hayotiy haqiqatga tayanib, ijro etsa, musiqali teatr aktyori ariya va duetlardan kelib chiqib, otasining murdasi tepasida, onasining qabrida, o'z qo'lida hozirgina jon bergan Zuhrani quchoqlab va hokazo hollarda kuylashga – ariya aytishga majbur, hayotda esa bu haqiqat chegarasiga sig'maydigan hol.

Ariya – bu monolog degan musiqali drama qonunidan kelib chiqsak, bilamizki dramadagi monolog bu fikr burilishi, yangi fikr tug'ilishi, aktyorda yangi maqsad paydo bo'lish nuqtasi, ya'ni tomoshabin anglashi, tushunishi uchun aniq eshitish shart qilib olingan joy.

Demak, aktyor nutqidagi nazorat kuchlilik sabab musiqali teatrdan kuchli va ijro erkinligi chegaralangan. Musiqali teatr aktyori, dirijyor tayog'ini doim his qilishi, ariya aytilish nuqtasiga muntazam izchil o'sib yetib boruvchi xatti-harakatlar oqimida, ya'ni sanoq-taktlar orasida ijro ifodalarini meyorini topish, ariya kuylashga erishish yo'llarini takomillashtirishi bilan tarbiyalanadi.

Nafas mashqlari ham sanoq va ritmni ushlab nazari bilan o'tiladi. Masalan, 4 sanoqqa olinadi, 4 sanoq ushlab turiladi, 4 sanoqqa chiqariladi. Bu mashq 8-12-16 butun notalar sanog'ida, so'ng yarim notalar 1/2 sanog'ida, so'ng 1/4 chorak va 1/16 talik sanoqlarda ichki ritmni ushlab o'rgatiladi. Bu musiqali teatr aktyori nutqiy spetsifik xususiyatlaridan asosiysi bo'lib, nafasga tovush qo'shib, so'ng so'z qo'shib, so'ng jumlar, matnlar qo'yib, nafas mustahkamlanadi.

Ovoz – bunda vokal ustozlari tomonidan shakllantirilgan ovozni nutqiy ovozdan ajrata olish zarur. Chunki, butun e'tibor ariyaga emas, so'zga, psixologik, psixofizik holatga qaratilishi lozim. Ovoz ikki xil: xonandalik ovozi, so'zlashuv ovozi bo'lib, bunda "rechitativ", "kuplet" kuylash yo'llari amaliy yordam berdi.

Musiqiy teatrning talabi – musiqiy so'z [1, 36]. Rechitativ so'zi lotinchadan olingan bo'lib, rechito ovoz chiqarib o'qish, deklamatsiya qilish demakdir. Vokal – musiqa turi bo'lib, oddiy yoki deklamatsion nutqini intonatsiya va ritm bilan ijro etishga, ovoz jarangini kuchaytirishga yoki pasaytirishga urg'u bilan o'qishga asoslangan.

Rechitativ ikki xil bo'ladi: 1) So'zma-so'z quruq rechitativ. Bunda erkin ritmda ijro etilgan va klavisin asbobining ayrim akkordlari bilan bo'linib turgan, asosan dialoglarda ishlatilgan; 2) Jo'rlik rechitativi. Bunda orkestr jo'rligida kuylanadi va aniq ritmga ega bo'ladi. Bu rechitativ turi asosan monologlardan (ariyalardan) oldin qo'llanilgan.

Rechitativ – ariya, duet va musiqiy nomerlarning burilish nuqtalaridagi nutq bog‘lovchi halqa bo‘lib, musiqiy sahna va nomerlar orasida bog‘lovchilik vazifasini o‘taydi. Rechitativ – ariyalardan oldin berilib, unga qarama-qarshi qo‘yiladi va uning ohangdorligini oshiradi. Rechitativda ovoz to‘lqinlanishi boy bo‘lib, uning baland-pastligi intonatsion har-xil bo‘lishi so‘zning ma‘nosiga gapiruvchining maqsadiga va mantiqiy izchillikka bog‘liqdir. Rechitativda so‘z bilan musiqa eng uzviy, eng mahkam, eng yaqin tarzda bog‘lanadi [1, 48].

So‘zdan ashulaga, ashuladan so‘zga o‘tishda ham birinchi pog‘ona hisoblanadi. Rechitativda so‘z ham bor, musiqa ham bor. Ashulada ikkalasi ham bor. Ashulaga nisbatan rechitativda oddiy so‘z ko‘proq. Ashulada kuy so‘zni yengan bo‘ladi, so‘zdan ustun bo‘ladi, so‘zni yetaklab boradi. Rechitativda esa so‘z ustun bo‘ladi va musiqa yordamchidir.

Rechitativlar: musiqa boshida keladi; musiqa o‘rtasida keladi; musiqa oxirida keladi [1, 54]. Rechitativda quyidagi maqsadlar, vazifalar amalga oshiriladi: artikulyatsiyaga rioya qilib, lablarni nihoyatda faol (jonli) ishlatish; shoshilmasdan ma‘noli qilib tushuntirish; bir-birini eshitib, xato qilmay so‘zlarni va misralarni tovushlarni tez hamda burro tushuntirib aytish; musiqa usuli va so‘zdan chiqib ketmay hirgoyi qilish; mantiq, ma‘no, talaffuzga, texnikaga ahamiyat berish; qiziqtirish, hammani o‘ziga qaratish; so‘zning ma‘nosidan kelib chiqib, xatti-harakatlar qilish. Taklif etish, chaqirish, chorlash, xursand qilish, o‘ziga jalb etish, hammani qiziqtirish, xohish va yoqimlilik uyg‘otish kabi harakatlarda talabalar matnni ijro etadilar.

Rechitativ ovoz imkoniyatlarini orttiradi. Bunda: avval to‘liq ovozda aytiladi; sekinroq maxfiy aytiladi; yana sekinroq sirli-kinoyali bilan aytish; shivirlab past ovozda sirlashib aytish; pichirlab sirlashish; oxiri so‘z yo‘q darajada bo‘lib qoladi; endi shu matnni so‘z va ohang bilan shu tartibda takrorlash.

Ijrochilar ketma-ketligi talaba-aktyorlarning so‘z va nutqi ham musiqiy qobiliyatidan kelib chiqib, dinamik o‘sib borish qoidasida teriladi. Rechitativga “xim” tovushini “xam” bilan ishlash ichki ovozni ham rivojlantirib, tovush ohangi aniq-aniiq jaranglashiga olib keladi.

Musiqali teatr aktyorligi san‘ati ixtisosligida talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish yo‘lida dostonlarning ahamiyati katta, ayniqsa, sa‘jlar. Chunki sa‘jlar musiqasi, ohangi, ritmi, so‘zlari, murod-maqsadlari eng yuqori darajadagi umumiy yaxlitlik kasb etadigan, xalqimiz durdonalari, dostonlarining cho‘qqisi. Chunki u yerda uyushib kelgan so‘zlar oqimi o‘ta donolik va mohirlik natijasining namunasidir.

Sa‘j – maqollarda, ertaklarda, xalq dostonlari, o‘zbek mumtoz nasrida, qadimiy turkiy yodnomalarda mavjud. Sa‘j mashqlari aslida deyarli barcha texnik mashqlari birlashtiruvchi kompleks xarakterga ega. Saj deb qofiyalangan nasrga aytiladi. Saj ayniqsa folklorda, dostonlarda, ertaklarda ko‘p uchraydi [2, 62].

Musiqali teatr aktyorligi san‘ati ixtisosligi talaba-aktyorlarining sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishda: musiqali texnik mashqlar; sa‘jlar asosida texnik mashqlar; doira usullari asosida texnik mashqlar; xalq laparlari asosida aytishuvlarga asoslangan texnik mashqlar; rechitativlar asosida texnik mashqlar spetsifik xarakter kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, qayd etilgan mashqlar o‘zida so‘z va musiqa uyg‘unligini mujassam eta olganligi bilan e‘tiborlidir. Musiqali teatr aktyorlarining sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish yo‘lidagi izlanishlar davom etayotgani, ular janr nuqtai nazaridan rang-barang va serjilo bo‘lib borayotgani, yangi tadqiqotlar uchun manba bo‘lib, xizmat qila olishi aniq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimjonova Z., To‘laganov A. Sahna nutqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
2. Nosirova A. Jonli so‘z san‘ati asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2010.